

Special Issue on “Innovative Economy: Challenges, Analysis and Prospects for Development”
Published in Aug-2021

Theoretical and Methodological Fundamentals of Economic Analysis in Management of the Modern Economy

Jumayeva Gulrukh Jurakulovna 1

Rashidov Rakhimjon Iskandarovich 2

Annotatsiya.

Ushbu maqolada zamonaviy iqtisodiyotni boshqarishda iqtisodiy tahlilning zarurligi, ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari, ularni takomillashtirish masalalari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Zamonaviy iqtisodiyot, globallashuv, integratsiya, innovatsiya, liberallashtirish, boshqaruv, axborot, iqtisodiy tahlil, sintez, usul, hisobot, omilli tahlil, qarorlar.



**ACADEMIC
JOURNAL**

1 Associate Professor of Department of Accounting and Auditing at Karshi Institute of Engineering and Economics

2 Senior Lecturer of Department of Accounting and Auditing at Karshi Institute of Engineering and Economics

Kirish. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va liberallashtirish jarayonlarida iqtisodiy fanlarning o'rni va ahamiyati yanada oshib bormoqda.

Iqtisodiyotni globallashuvi, integratsion jarayonlar, innovatsion jadallik va kuchli raqobat muhitidagi talablar hisob-kitoblarga oid fanlar tizimini ham zamonaviy biznes qoidalariga mos tarzda takomillashtirishni talab etmoqda. Negaki, manfaatlar ustuni sifatida tan olingan bozor modeli avvalo, aniq hisob-kitoblar algoritmini, ularni baholashni va chuqur tahliliy yechimlarni talab etadi¹.

Xususan, iqtisodiy tahlil iqtisodiy fanlar tizimida o'zining ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Chunki, iqtisodiy tahlil bilish nazariyasining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi va makroiqtisodiyorning asosiy bo'g'ini bo'lgan korxona va tashkilotlarda iqtisodiy samaradorlik darajasini baholash hamda uni oshirish yo'llarini axtarib topishga mo'ljallangan fan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Zamonaviy iqtisodiyotni samarali boshqarish va unda iqtisodiy tahlilning zarurligi, vazifalari hamda nazariy va uslubiy asoslari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, davlat arboblari tomonidan o'rganilgan. O'rganishlar tahlilidan ko'rindaniki, iqtisodiy tahlil yakunlariga ko'ra, milliy iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar bo'yicha islohotlar qilish, iqtisodiyotda davlatning ishtirokini kamaytirish bo'yicha nazariy asoslar ilgari surilgan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasida ta'kidlanganganidek, "Tarkibiy islohotlarning yana bir yo'nalishi bu – davlatning iqtisodiyotdagisi ishtirokini kamaytirishdir."²

Xorijiy mamlakatlardan Norvegiyaning real iqtisodiy amaliyoti o'rganilganda, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan firmalar tahliliga muvofiq quyidagi xulosaga kelingan: davlat firmalariga ko'ra, xususiy firmalar mehnat unumdarligi darjasini, barcha mezonlar boyicha samaraliroq ekanligi o'z tasdig'ini topgan.

Davlat korxonalarining samarasizligi muammosi umumiyligi dunyo trendi hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil yordamida zamonaviy boshqarishda tarkibiy o'zgarishlar qilish va xususiy korxonalarga ustuvorlik berish masalalari alohida tadqiq etilgan va ilgari surilgan. Ko'pgina iqtisodchilar, jumladan, Dj.Stiglits (Nobel mukofoti sovrindori, 2001 yil), A.Shleyfer, R.Vishnilar ham davlat ishtirokidagi korxonalar xususiy kompaniyalarga nisbatan samaradorligi ancha past ekanligini ta'kidlashadi³. Xususan, ushbu masala zamonaviy boshqaruvga tegishli bo'lib, xorijiy manbalarda ham alohida e'tirof etilgan.

Zamonaviy boshqaruvni:⁴

- yaqin va uzoq davriylikni qamrab olgan – rejalashtirish;
- mulk egalari va maqsadli foydalanuvchilarni moliyaviy va boshqa axborotlar bilan ta'minlovchi – buxgalteriya hisobi;
- axborotlarni chuqur qayta ishslash, faoliyatga obyektiv baho berish, iqtisodiy va moliyaviy

¹Raximov M.Yu. Iqtisodiyot sub'yeqtvari moliyaviy holatining tahlili.-T.: Moliya-iqtisod, 2015.-316 b.

² Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr.kunida Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasi. Xalq so'zi gazetasi, 2020 yil 30 dekabr.

³ Yangi o'zbekiston – yangicha dunyoqarash. Risola / Mualliflar jamoasi: – Toshkent, 2021 y. 48-b

⁴K. R. Subramanyam Financial statement analysis, Eleventh edition.Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, 2-page

imkoniyatlarni aniqlash orqali tezkor, joriy va istiqboldagi boshqaruv strategiyasini belgilab beruvchi – iqtisodiy tahlil;

- faoliyatni yo'lga qoyish va maqsadli boshqarishning aniq yechimlari va natijaviyligini ta'minlovchi, innovatsion va aqli iqtisodni ta'minlashga imkon beruvchi – ilmiy faoliyat;
- faoliyat samaradorligi va natijaviyligidan kelib chiqqan holda munosabatlarni muvofiqlashtirishning muhim mezoni bo'lgan – mehnatni munosib rag'batlantirish;
- va boshqa (ijtimoiy, ekologik, texnikaviy, tashkiliy) jihatlarni qamrab olgan – murakkab tizim deb qarash lozim.

Bugungi kunda iqtisodiy tahlil fan sifatida rivojlanishning yangi bir bosqichida turibdi. Bunda tahlilning tubdan yangi nazariyasi, uslubiyoti, amaliyoti xalqaro standartlar asosida zamonaviy boshqaruv talablari asosida shakllanib bormoqda. Manbalar tahlilidan ko'rindiki, tahlilning boshqaruvda operativlikni ta'minlashga imkon beruvchi, joriy va istiqboldagi rivojlanishni belgilab beruvchi, iqtisodiy va moliyaviy axborotlar oqimining shakliga (moliyaviy, boshqaruv) mos tushuvchi, kommunikatsiya texnologiyalar, matematik modellar, statistik metodlarga asoslangan shaklini yo'lga qo'yishga harakatlar qilinmoqda⁵.

Tadqiqot metodlari. Zamonaviy iqtisodiyotda iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari hisob-kitob, monografik kuzatuv, an'anaviy statistik usullar, iqtisodiy-matematik usullar va mantiqiy tafakkur yordamida tadqiq etiladi.

Tahlil va natijalar. Insoniyat hayotida globallashuv jarayonlari o'zining ijobjiy ta'sirlari bilan bir qatorda salbiy ta'sirlarini ham namoyon qilishi mumkinligi aynan 2020 yilda boshlangan pandimiya sharoitida aniq o'z isbotini topdi. Ammo, insoniyat jamiyati mana shunday tahlikali vaziyatlarda ham samarali faoliyat ko'rsatishi uchun ilmiy asoslangan boshqaruv tizimini yaratishi dolzarb masala hisoblanib, bunda iqtisodiy tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Chunki, zamonaviy boshqaruvda tahlil – ilmlar va bilimlar tarmog'ining ham muhim bo'g'ini sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning samarali faoliyatini yo'lga qo'yish, yo'qotishlarning oldini olish va zararsiz ishslash, iqtisodiy va moliyaviy holatni yaxshilash, tahlikalarga bardoshlikni oshirishning ham muhim dastagi sifatida qaraladi. Masalan, shunday sharoitda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun mikroiqtisodiyotda korxonalar faoliyatini maqsadli tashkil etish talab qilinadi. O'tkazilgan iqtisodiy tahlillar natijalariga ko'ra, iqtisodiyotga davlat aralashuvini qisqartirish aynan bugungi iqtisodiyotda samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda kichik va o'rtacha biznes hamda xususiy tadbirkorlikka katta imkoniyatlar berilmoqda. Nafaqat xo'jalik yurituvchi subektlar jamoasi, mulk egalari, investorlar, balki butun bir davlatlar va jamoatchilik tizimi ham boshqaruvdagi bunday o'zgarish va rivojlanishdan manfaatdordirlar.


Shuning uchun davlat kompaniyalari faoliyatini cheklash va ularni bosqichma-bosqich xususiylashtirib borish, bozor modeliga tezroq o'tish bilan bir qatorda iqtisodiy kambag'allikni qisqartirish, o'zini o'zi band qilish orqali moliyaviy mustaqillik va iqtisodiy faollilikni amalga oshirish imkonini beradi.

Xususan, bugungi kunda iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar qilish sharoitida zamonaviy rahbar

⁵ Пронина В. С. Экономический анализ: перспективы развития // Молодой ученый.-2016. №27. С. 485-487. URL <https://moluch.ru/archive/131/36374/> (дата обращения: 05.02.2018).

samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish mezonlarini bilishi, o‘z faoliyat sohasidagi muammoni hal etishga tizimli yondashishi, tanqidiy tahlil, ishlab chiqarishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish masalalariga e’tibor qaratishi talab etiladi.

Biz quyidagi rasmida davlat ulushi bor korxonalarining mulkchilik shakllari boyicha korxonalar soni (2021 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra) tahlilini keltiramiz.



1.1-rasm. Davlat ulushi bor korxonalarining mulkchilik shakllari boyicha korxonalar soni (2021 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra)⁶

Agar 1.1-rasm ma’lumotlariga tayanadigan bo’lsak, O’zbekiston Respublikasida 2021 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, mulkchilik shakllari boyicha davlat ulushi bor korxonalar soni 2727 tani, ulardan: davlat korxonalar 1418 tani, aksiyadorlik jamiyatlari soni 1046 tani, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni esa 263 tani tashkil etmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish mamlakatimizda tarkibiy islohotlarning alohida muhim yo’nalishi sifatida belgilab olingan va bu yo’nalishda bir qator e’tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2016 yil 17 oktabrda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat ulushi ustuvor bo’lgan aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2635-sonli qarori asosida bu boradagi ishlarning birinchi qadami qoyilgan.

Ushbu qarorga ko‘ra, oddiy aksiyalari to’liq holda davlatga tegishli bo’lgan strategik ahamiyatga ega aksiyadorlik jamiyatlar sifatida quyidagilar belgilandi: “O’zbekneftgaz” MXK, “O’zbekenergo” AJ, “O’zbekiston temir yo’llari” AJ, “O’zbekiston havo yo’llari” AJ, “O’zbektelekom” AJ, “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Olmaliq kon metallurgiya kombinati” AJ va “Xalq banki” ATB.

Bunda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” davlat korxonasi va “O’zbekiston havo yo’llari” milliy aviakompaniyasini aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirilishi belgilandi.

Bundan tashqari, bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktabrda

⁶Yangi o’zbekiston – yangicha dunyoqarash. Risola / Mualliflar jamoasi: – Toshkent, 2021 y. 48-b.

qabul qilingan “Davlat ishtirokidagi korxonalarini isloq qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-6096-sonli Farmoni asosida amaliy va salmoqli ishlar boshlab yuborildi. Murojaatnomada ta’kidlanganidek⁷, davlat aktivlarini ochiq-oshkora va samarali sotish uchun xalqaro moliyaviy va huquqiy maslahatchilarni jalb etgan holda qator korxonalarini xususiylashtirishga oid keng qamrovli ishlar istiqbolda xususiy sektor taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bu esa xususiy sektorda foydaga intilish va manfaatdorlikning yuqoriligi bois, bandlik va aholi daromadlarining o’sishi demakdir.

Murojaatnomada belgilangan davlat ulushi bo’lgan korxonalar sonining kelgusi ikki yilda kamida 3 barobar qisqartirilishi vazifasining amalga oshirilishi, avvalo, bozor iqtisodiyotining muhim qonuniyati hisoblangan raqobatning rivojlanishiga va monopolianing chegaralanishiga xizmat qiladi. Bu borada raqobat mavjud bo’lgan sohalarda faoliyat yuritayotgan “Farg’onaazot” va “Dehqonobod kaly” zavodlari, “Koka-kola ichimligi” korxonasi, “Beldersay” va “Chorvoq” oromgohlari, “Ichon qal’a” va “Hyatt Regency” mehmonxonalari, “Poytaxt” biznes majmuasi, alkogol, yog’-moy kabi tarmoqlardagi 83 ta yirik korxonadagi davlat ulushi sotuvga qoyilayotganligi xususiy sektoring keng ko’lamli rivojini ta’minlaydi. Bunday ustuvor vazifalarning ijrosi hamda natijalarini doimiy o’rganib, baholab borishda iqtisodiy tahlil oldiga ulkan vazifalar qo’ymoqda.

Xususan, xo’jalik yurituvchi subyektlar tomonidan qabul qiladigan iqtisodiy qarorlarda moliyaviy manbalarni, ya’ni pul mablag’larini ko’paytirish, ularning ko’payish vaqtini aniq hisob-kitob qilish va natijaga erishishga umid qilishdagi qobiliyatini baholash muhim masala hisoblanadi. Ushbu masala yechimini ta’minlashda iqtisodiy tahlilning nazariy va uslubiy asoslari alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan tahlil yordamida:

- xo’jalik yurituvchi subyektlarda ichki va tashqi ta’sir birliklarini hisobga olgan holda faoliyatning tizimli tahlilini amalga oshirishga;
- xo’jalik yurituvchi subyektlarning joriy va istiqboldagi ko’zlangan maqsadlariga erishish yuzasidan mavjud imkoniyatlarini aniqlashga va o’lchashga;
- xo’jalik yurituvchi subyektning rivojlanish darajasining o’sishi va uning o’zgarishlariga ta’sir etuvchi omillariga baho berishga;
- xo’jalik yurituvchi subyektni kelgusida yanada rivojlantirish, foydalanimayotgan mavjud imkoniyatlarini ishga solishning iqtisodiy, moliyaviy imkoniyatlarini izlab topish va amalga oshirishga yordam beradi.

Chunki, aynan iqtisodiy tahlil–boshqaruva faoliyatining sifatini oshirish va samaradorligini ta’minlash, boshqaruva qarorlarini qabul qilishning barcha bosqichlarida ishtirok etadi.

Iqtisodiy tahlilning zamonaviy shaklida aniq vazifalarni hal etishda yuksak professionallik, iqtisodiy-matematik modellar, axborot texnologiyalari, murakkab analitik yechimlarga tayanish zarur. Chunki, faoliyatning samaradorligi va natijaviyligini, uzviy aloqadorlik va bog’lanishlarni faqat omilli tahlil yordamida amalga oshirish mumkin bo’ladi. Omilli tahlil iqtisodiy-matematik usullardan foydalanishni, analitik ishlar sifatligini, tahlilning ilmiy asoslanganligini, to’liqligini va masalaning qanchalik batafsil o’rganilganligini ta’minlab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, iqtisodiy-matematik usullar zamonaviy iqtisodiyotda masalani yechishning kompyuter algoritmini shakllantirish va undan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Zero, bugungi

⁷ Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr.kunida Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasi. Xalq so’zi gazetasи, 2020 yil 30 dekabr.

iqtisodiyotda axborotlarning tezligi, murakkabligi va ko‘pligi iqtisodiy tahlilning faqat iqtisodiy-matematik usullaridan foydalanish vaqt mezoni bo‘yicha, tezlik, aniqlik masalasida, dasturlash va natijalar mayda birliklariga qadar aniqlanishi sababli samaradorligi yuqori turadi.

Iqtisodiy matematik usullar iqtisodiy tahlil imkoniyatlarini oshirib, yanada ko‘proq turdag'i va murakkab tavsifdagi masalalarni qisqa muddatda to‘g‘ri hal qilish imkonini beradi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, iqtisodiy tahlilda matematik usullarni qo‘llash korxona faoliyatida qator o‘ziga xos shartlarni e’tiborga olishni talab qiladi. Ularning asosiyilari quyidagilardir: korxona iqtisodiyotini to‘laligicha axborot texnologiyalariga asoslangan bo‘lishi, iqtisodiy-matematik modellar tuzish, axborot manbalarini takomillashtirish, xodimlar malakasini oshirish va tahlilchilar tarkibini (dasturchi-tahlilchi, hisobchi- matematik, dasturchi-hisobchi kabi) yangilashni taqazo etadi.

Yuqorida ta’kidlangan fikrlardan ko‘rinadiki, iqtisodiy tahlil – xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida obyektiv reallikni, jarayonlar, erishilgan natijalar yuzasidan real analitik xulosalarni tayyorlash, aniq chora-tadbirlarni belgilash va amalga oshirishda inson omilining ham muhim ekanligini asoslaydi.

O‘z navbatida iqtisodiy tahlil:

- boshqaruv jarayonini takomillashtirishga;
- boshqaruv samaradorligini oshirishga;
- boshqaruv sifatini ta’minlashga;
- -raqobatbardoshlikni oshirishga imkon beradi.

Tahlilning raqobatdosh iqtisodiyotda, doiraviy kengligi yanada kuchayadi. Ayniqsa, turli iqtisodiy inqirozlar va pandimiylar sharoitida ularning yuzaga kelishini makro va mikro ko‘lamdag'i sabablarini tahlil qilish zaruriyati yanada ortadi. Negaki, har bitta (iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va ijtimoiy) jarayondagi o‘zgarishlar sabab va oqibat, ichki va tashqi omillar ta’sirida tashxislanishi va yakuniy xulosalar bilan izohlanishi lozim.

Bugungi kun zamonaviy iqtisodiyoti xo‘jalik yurituvchi subyektlar oldiga texnik-texnologik taraqqiyotga, ilm fanga asoslangan iqtisodiyotni yo‘lga qo‘yishni taqazo etmoqda. Bu holat, boshqaruvchilardan samarali faoliyat shakllarini yo‘lga qo‘yishni, tadbirkorlikni faollashtirishni, individuallik va namunaviylikni kuchaytirishni talab etadi. Bu vazifalarning barchasini iqtisodiy tahlilsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Bu borada avvalo boshqaruvning o‘zini ham takomillashtirish masalasiga alohida ahamiyat qaratish zarur.

Boshqaruv tizimi takomillashtirilmas ekan, uning muhim dastaklari takomillashtirilmaydi. Bugungi kunda boshqaruvning takomillashgan shakli sifatida uning korporativ shakliga o‘tish yuzasidan dunyo amaliyotida yangi bir davr boshlanganligini qayd etish lozim⁸.

An'anaviy boshqaruv qarorlarini qabul qilish nazariyalarida boshqaruvning kompleks tahlil konsepsiyasiga alohida urg‘u beriladi. Boshqaruvning kompleks tahlil konsepsiysi – boshqaruv qarorlarini qabul qilishda barcha jihatlarni hisobga olishni, ko‘plab soha mutaxassislarining hamkorlikda ishlashini talab etadi. Mazkur konsepsiya qaror qabul qilish samaradorligini belgilovchi mezonlar faqat miqdor ko‘rsatkichlar (Quantitative indicators) bilan emas, balki sifat

⁸ Д. Рахимова. Корпоратив бошқарув: Замонавий усул ва ёндашувлар. Халқ сўзи газетаси. 20 Февраль 2016 йил.

ko‘rsatkichlari (qualitative indicators) bilan ham baholanadi.

Iqtisodiy tahlilning zamonaviy boshqaruvdagi roli – boshqaruv subyektlariga boshqaruv obyektini (xo‘jalik jarayonlari va hodisalari, ularning samarasi va natijalari yuzasidan boshqaruvning) maqbul yechimlarini berish yuzasidan zaruriy axborotlar bilan ta’minlashdan iborat.

Iqtisodiy tahlilning boshqaruvdagi o‘rni – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xo‘jalik-tijorat-moliya faoliyatining joriy holatiga baho berish va uni kelgusida yanada rivojlantirish yuzasidan tizimli yechimlarni boshqaruv subyektlariga yetkazib berishdan iborat.

Iqtisodiy tahlilning boshqaruvdagi ahamiyatini – xo‘jalik yurituvchi subyektlar iqtisodiy, moliyaviy ahvoli, uning kelgusidagi kutilishlari, pul mablag‘lari kirimi va chiqimidagi ijobil farqlanishlar, kapital hajmini oshirishdagi kompleks o‘rganishlarning zaruriyligi xarakterlaydi.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr.kunida Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi, 2020 yil 30 dekabr.
2. Raximov M.Y. Iqtisodiyot subyektlari moliyaviy holatining tahlili.-T.: Moliya-iqtisod, 2015.-316 b.
3. Yangi o‘zbekiston – yangicha dunyoqarash. Risola / Mualliflar jamoasi: – Toshkent, 2021 y. 48-b.
4. Subramanyam K.R. Financial statement analysis, Eleventh edition. Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2014 by, 2-page.
5. Пронина В. С. Экономический анализ: перспективы развития // Молодой ученый.-2016. №27. С. 485-487. URL <https://moluch.ru/archive/131/36374/> (дата обращения: 05.02.2018).